



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TALABALARDA VERBAL AGRESSIYANI OLDINI OLIISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI

Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi
Namangan davlat universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida kuzatilayotgan verbal agressiya holatlarining ijtimoiy-psixologik, kommunikativ va aksiologik omillari milliy qadriyatlar tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilingan. Zamonaviy globalizatsiya sharoitida axborot bosimi, virtual muloqotning ortishi, individualistik qarashlarning kuchayishi va ijtimoiy munosabatlarda ma'naviy me'yorlarning zaiflashishi talabalar nutq madaniyatida agressiv tendensiyalarni shakllantirishi ilmiy asoslangan. Shu nuqtai nazardan, milliy madaniy meros, an'anaviy axloqiy tamoyillar, muomala madaniyati, hurmat-e'tibor, bag'rikenglik va hamjihatlikka tayangan tarbiyaviy-pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali verbal zo'ravonlikni profilaktika qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, verbal agressiya, kommunikativ madaniyat, talabalar muhiti, pedagogik texnologiya, profilaktika, empatiya, konfliktologiya, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОФИЛАКТИКИ ВЕРБАЛЬНОЙ АГРЕССИИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Окмирзаева Бахтигул Бахадир кизи
Наманганский государственный университет, исследователь

Аннотация

В статье анализируются социально-психологические, коммуникативные и аксиологические факторы, связанные с проявлениями вербальной агрессии среди студентов высших учебных заведений, в контексте системы национальных ценностей. Научно обосновано, что в условиях современной глобализации информационное давление, рост виртуального общения, усиление индивидуалистических взглядов и ослабление моральных норм в социальных отношениях формируют агрессивные тенденции в студенческой речи. С этой позиции предложены эффективные механизмы профилактики вербальной агрессии через внедрение воспитательно-педагогических технологий, основанных на национальном культурном наследии, традиционных этических принципах, культуре общения, уважении, терпимости и солидарности.

Ключевые слова: национальные ценности, вербальная агрессия, коммуникативная культура, студенческая среда, педагогическая технология, профилактика, эмпатия, конфликтология, нравственное воспитание, социально-психологическая адаптация.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL TECHNOLOGIES FOR PREVENTING VERBAL AGGRESSION AMONG STUDENTS BASED ON NATIONAL VALUES

Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi
Namangan State University, Researcher

Abstract

The article analyzes the social-psychological, communicative, and axiological factors related to verbal aggression among students in higher education institutions in the context of national values. It is scientifically substantiated that, in the conditions of modern globalization, information pressure, increased virtual communication, the rise of individualistic views, and the weakening of moral norms in social relations contribute to aggressive tendencies in student speech. From this perspective, effective mechanisms for preventing verbal aggression are proposed through the implementation of educational and pedagogical technologies grounded in national cultural heritage, traditional ethical principles, communication culture, respect, tolerance, and solidarity.

Keywords: national values, verbal aggression, communicative culture, student environment, pedagogical technology, prevention, empathy, conflictology, moral education, social-psychological adaptation.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari sharoitida talabalar ijtimoiy va psixologik jarayonlarning murakkab o'zaro ta'siri ostida rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan, talabalar o'rtasidagi verbal agressiya masalasi nafaqat psixologik xavfsizlik, balki kommunikativ va ma'naviy muhitni saqlash jihatidan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Verbal agressiya bu shaxsning nutq orqali boshqalarga nisbatan qasddan zarar yetkazish, tahdid, tanqid yoki noxush his-tuyg'ularni uyg'otishga qaratilgan harakatlari sifatida tushuniladi. Talabalar muhitida bunday xatti-harakatlar ko'pincha individualistik qarashlar, stress, ma'naviy me'yorlarning pasayishi, raqamli kommunikatsiya vositalarida ortiqcha o'zini ifoda qilish tendensiyalari bilan bog'liq bo'ladi[1]. Verbal agressiyaning psixologik asoslari asosan shaxsning emosional barqarorligi, empatik qobiliyati va konfliktlarga yondashuv strategiyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, pedagogik psixologiya va aksiologiya sohalarida milliy qadriyatlarining rolini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega bo'ladi, chunki milliy madaniy meros va an'anaviy axloqiy tamoyillar yoshlar ongida ijobiy normativ-xulqiy modelni shakllantiradi. Masalan, o'zbek milliy qadriyatlari: hurmat, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, hamjihatlik va o'zaro yordam kabi tamoyillar talabalar o'rtasida konstruktiv muloqot va emotsional barqarorlikni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi[2]. So'nggi yillarda globalizatsiya va raqamli texnologiyalar ta'sirida talabalar orasida kommunikativ agressiya ko'rinishlarining ko'payishi kuzatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn chatlar, interaktiv ta'lim platformalari orqali amalga oshiriladigan muloqotlarda nutqiy agressiya tez-tez namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, verbal agressiya ko'pincha talabalar shaxsiy muammolari, stress holatlari, raqobat, va o'quv jarayonidagi psixologik bosimlar bilan kuchayadi. Shunday bo'lsa-da, milliy qadriyatlar asosida pedagogik ta'sir mexanizmlari orqali bu jarayonlarni konstruktiv yo'naltirish mumkin. Milliy qadriyatlar asosida verbal agressiyaning oldini olishning pedagogik texnologiyalari zamonaviy psixologik va pedagogik bilimlarni integratsiyalashga asoslanadi[3]. Bu jarayonda talabalar kommunikativ kompetentlikni rivojlantiradi, refleksiv muloqot muhitini shakllantiradi, empatiya va konstruktiv konfliktlarni hal qilish ko'nikmalarini egallaydi. Shuningdek, bunday texnologiyalar talabaning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasini oshirish, sog'lom ma'naviy muhitni yaratish va ijobiy nutq madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan. Ilmiy adabiyotlarda verbal agressiyaning oldini olish bilan bog'liq tadqiqotlar psixologiya, pedagogika va sotsiologiya yo'nalishlarida olib borilgan. Anderson va Bushman (2002) nutqiy agressiyaning psixologik mexanizmlarini o'rganib, uni individual va ijtimoiy omillar bilan bog'lashni taklif qilgan bo'lsa, Berkowitz (1993) agressiyaning kognitiv va emosional komponentlarini tadqiq etgan. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar asosida pedagogik texnologiyalarni joriy etish nafaqat nutqiy agressiyaning kamaytirish, balki talabalar shaxsiyatini ijtimoiy-hissiy jihatdan rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi[4]. Milliy qadriyatlar asosida pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish jarayonida bir

qancha metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Bularga aksiyologik yondashuv (talabalar axloqiy qadriyatlarni anglash va qabul qilishni o'rganadilar), interaktiv o'qitish (rol o'yinlar, case-study, muammoli vaziyatlar), refleksiv yondashuv (shaxsiy tajriba va muloqotni tahlil qilish), va empatiyaga yo'naltirilgan mashg'ulotlar kiradi. Ushbu metodlar birgalikda talabalar nutq madaniyatini oshirish, agressiv harakatlarni kamaytirish va konstruktiv muloqotni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks tizimni hosil qiladi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun milliy qadriyatlar bilan bog'liq psixologik va ijtimoiy me'yorlarni tahlil qilish muhimdir. Masalan, o'zbek madaniyati talabalarga hurmat va bag'rikenglikni qadrlashni, boshqalarning nuqtai nazarini tinglash va tushunishni o'rgatadi, bu esa verbal agressiyaning oldini olishda mustahkam poydevor yaratadi[5]. Shu sababli, milliy qadriyatlar pedagogik va psixologik integratsiyalashgan model sifatida ko'rib chiqiladi va talabalarda ijobiy nutqiy xulqni shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida verbal agressiyaning oldini olish texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, talabalarning emotsional barqarorligi, empatiya va ijtimoiy-psixologik moslashuvini oshirish orqali akademik muvaffaqiyatni va sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantiradi, jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyatni anglashni kuchaytiradi va kelajakdagi professional faoliyatda samarali kommunikatsiyani ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili: Ilmiy tadqiqotlarda verbal agressiya va uni oldini olish masalasi turli nazariy, empirik va pedagogik yondashuvlar orqali o'rganilgan. Chet el olimlarining bu sohada ishleri verbal agressiyaning kommunikatsion asoslarini aniqlash, hamda pedagogik muhitda uni kamaytirish yo'llarini ilmiy tahlil qiladi. Quyida ikki taniqli xalqaro olimning ilmiy qarashlari uzviy bog'lab yoritiladi. Birinchidan, Dominic A. Infante kommunikatsiya sohasida verbal agressivlik tushunchasini konseptual asosda ishlab chiqqan olim sifatida tanilgan. Infante nutqdagi agressiv xatti-harakatni shaxsning boshqalarning o'zini qadrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatish orqali o'tkaziladigan kommunikatsion strategiya deb ta'riflaydi va bu hodisani o'ziga xos o'lchov Verbal Aggressiveness Scale yordamida aniqlaydi. Uning yondashuvi verbal agressiyaning shaxslararo muloqot mexanizmlarida konfliktni keltirib chiqaruvchi destruktiv element sifatida ko'radi va uni argumentativ muloqotdan ajratadi, shu orqali pedagogik kontekstda agressiyaning oldini olish uchun samarali kommunikativ strategiyalarni izlashga asos yaratadi. Infante va Wigley tomonidan ishlab chiqilgan o'lchov asosi sifatida verbal agressivlikning ko'p o'lchovli, ijobiy va salbiy komponentlaridan iboratligi aniqlangan, bu esa agressiv nutqni baholash va profilingni chuqur tahlil qilish imkonini beradi ya'ni, verbal agressiyaning shaxsiyat va vaziyat omillari bilan bog'liqligini tushunishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, Christina Salmivalli psixologiya va ta'lim sohasida bolalar va o'smirlar orasidagi zo'ravonlik, xususan tilli agressiya va maktabdagi bullying fenomenini ilmiy tahlil qiluvchi yetakchi tadqiqotchilardan biridir. Salmivalli bolalar guruhlari o'rtasidagi munosabatlarni tizimli asosda o'rganib, bullyingni shunchaki yakka-yolg'iz shaxsning xulqidan ko'ra guruh ichidagi o'zaro ta'sirlar jarayoni sifatida ko'radi, bu esa pedagogik muhitda agressiya profilaktikasi strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Uning tadqiqotlari peer relations ("tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar") konsepsiyasini asoslab beradi va maktab kontekstida ijobiy sosial muhit yaratish, guvohlar roli va ijobiy intervensiyalarni qo'llash orqali agressiyaning kamaytirishning samarali yondashuvlarini taklif qiladi. Ushbu ikki olimning qarashlari bir-birini to'ldiradi: Infante verbal agressivlikning individual kommunikatsion mexanizmlarini aniqlashga urg'u berar ekan, Salmivalli esa bu jarayonni ijtimoiy kontekstda, ya'ni do'stlar guruhi va maktab muhitida qanday namoyon bo'lishi va oldini olish yo'llarini tahlil qiladi. Bu yondashuvlar milliy qadriyatlar bilan bog'liq pedagogik texnologiyalar ishlab chiqishda, talabalar o'rtasidagi kommunikativ salohiyatni oshiruvchi ham individual, ham guruhga doir kompleks profilaktik choralarni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodologik qism: Mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida talabalarda verbal

agressiyani oldini olish texnologiyasini tadqiq etishda pedagogik psixologiya, aksiologiya va kommunikativ kompetentlik nazariyalari integratsiyalashgan metodologik yondashuv sifatida qo'llanilgan. Tadqiqot davomida aksiologik yondashuv talabalarda milliy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni anglash va qabul qilish darajasini oshirishga, interaktiv metodlar rol o'yinlar, case-study va muammoli vaziyatlar talabalarni konstruktiv muloqotga jalb qilish va verbal agressiyani kamaytirish amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, refleksiv metodlar talabalarning o'z nutqi va xatti-harakatlarini tahlil qilishi, empatik qarorlar qabul qilishni rivojlantirishi orqali verbal agressiyaning ijtimoiy va shaxsiy omillarini anglashga xizmat qilgan. Empatiyaga yo'naltirilgan mashg'ulotlar talabalarni boshqalarning hissiyotlarini tushunishga va konstruktiv reaksiya ko'rsatishga o'rgatib, verbal agressiyani profilaktika qilishda samarali vosita bo'lgan. Tadqiqot jarayonida so'rov va diagnostik metodlar — anketa, test va kuzatuvlar — orqali talabalar orasida verbal agressiya darajasi baholangan va metodlarning samaradorligi aniqlangan. Shu jumladan, Infante va Wigley (2002) tomonidan ishlab chiqilgan Verbal Aggressiveness Scale tadqiqotga integratsiya qilinib, verbal agressiyaning individual va ijtimoiy komponentlari chuqur tahlil qilingan. Umuman olganda, ushbu metodlar tizimi milliy qadriyatlar asosida pedagogik texnologiyani amalda sinash va uning natijadorligini baholashga imkon yaratib, talabalarda konstruktiv kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va ma'naviy-psixologik barqarorlikni oshirishga xizmat qilgan.

Natijalar: Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar asosida pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalarda verbal agressiyani sezilarli darajada kamaytirishga, konstruktiv kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga va ijtimoiy-psixologik barqarorlikni oshirishga xizmat qilgan. Tadqiqot davomida talabalarda empatiya darajasi, refleksiv mulohaza ko'nikmalari va guruh ichidagi ijobiy munosabatlar sezilarli darajada oshganligi aniqlangan, bu esa verbal agressiv xatti-harakatlarning kamayishi bilan bevosita bog'liqligi tasdiqlangan. Shuningdek, interaktiv metodlar — rol o'yinlar, case-study va muammoli vaziyatlar — orqali talabalarning konfliktlarni konstruktiv tarzda hal qilish va boshqalarning nuqtai nazarini tushunish qobiliyati kuchaygan. So'rov va diagnostik tadqiqotlar Infante va Wigley (Verbal Aggressiveness Scale, 2002) modeli asosida o'tkazilgan bo'lib, talabalar nutq madaniyati va agressiv xatti-harakatlarning shaxsiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi aniqlangan. Umumiy natijalar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar tizimi asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar talabalarda ijobiy muloqot muhitini shakllantirish, verbal agressiyani kamaytirish va ma'naviy-psixologik barqarorlikni mustahkamlashda samarali vosita sifatida isbotlangan.

Muxokama: Verbal agressiya va uni oldini olish masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli qarashlar mavjud bo'lib, ular orasida individual va ijtimoiy yondashuvlar o'rtasida muhokama mavjud. Dominic A. Infante nutqiy agressiyani shaxsning individual kommunikatsion strategiyasi sifatida ko'rgan holda, uni o'zaro muloqotda konstruktiv tarzda boshqarish va profilaktika qilish zarurligini ta'kidlaydi[8]. Infante nazariyasi asosida verbal agressiya shaxsning o'ziga xos xulqiy mexanizmlari bilan bog'liq bo'lib, uni aniqlash va o'lchash individual psixologik xususiyatlar orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnologiyalar talabaning individual empatiya va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim, chunki verbal agressiya ko'pincha shaxsiy emotsional stress va ijtimoiy kompetentsiya darajasiga bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan, Christina Salmivalli ijtimoiy kontekstni, ya'ni guruh va tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlarni asosiy omil sifatida ko'radi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, verbal agressiya va bullying fenomeni ko'pincha ijtimoiy munosabatlar tizimida, guruhdagi ro'l va normativ me'yorlar orqali shakllanadi. Shu bilan birga, Salmivalli pedagogik intervensiyalar va ijobiy sosial muhit yaratish orqali agressiyani oldini olish mumkinligini ta'kidlaydi[9]. U shuni ko'rsatadiki, talabalar orasida guruh ichidagi o'zaro yordam, empatiya va konstruktiv muloqotni rivojlantirish verbal agressiyani sezilarli darajada kamaytiradi. Infante va

Salmivalli qarashlari o'rtasidagi asosiy polemika shundaki, birinchi yondashuv individual shaxsiyat va psixologik xususiyatlarga urg'u beradi, ikkinchisi esa ijtimoiy tizim va guruh munosabatlarini asosiy faktor sifatida ko'radi. Shu bilan birga, amaliy pedagogik jihatdan bu ikki yondashuvni birlashtirish eng samarali strategiya hisoblanadi: talabalar shaxsiy reflektiv va empatik ko'nikmalarni rivojlantirar ekan, guruh ichida konstruktiv kommunikativ muhit shakllantiriladi va natijada verbal agressiya kamayadi. Mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida pedagogik texnologiyalar Infante individual yondashuvi va Salmivalli ijtimoiy yondashuvini integratsiyalash orqali ishlab chiqilgan. Rol o'yinlar, muammoli vaziyatlar, guruh muhokamalari va reflektiv mashg'ulotlar yordamida talabalar shaxsiy empatiya, hurmat va konstruktiv reaksiya ko'nikmalarini egallaydi, shu bilan birga guruh ichidagi ijobiy munosabatlar tizimini mustahkamlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu integratsiyalashgan yondashuv milliy qadriyatlar asosida verbal agressiyani oldini olish va ijtimoiy-psixologik barqaror muhit yaratishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, Infante va Salmivalli nazariyalarining uzviy integratsiyasi talabalarda verbal agressiyani kamaytirish, konstruktiv kommunikatsiya va empatiyani rivojlantirishga, shuningdek, milliy qadriyatlar orqali ma'naviy tarbiya tizimini mustahkamlashga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy polemika amaliy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini oshirish va talabalarda ijobiy nutq madaniyatini shakllantirishda muhim asos bo'ladi.

Xulosa: Mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida talabalarda verbal agressiyani oldini olishning pedagogik-psixologik texnologiyalari tizimli tarzda o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar hurmat, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, hamjihatlik va boshqalarga nisbatan ehtiyotkorlik talabalarda ijobiy nutq madaniyatini shakllantirish va verbal agressiyani kamaytirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Infante individual yondashuvi va Salmivalli ijtimoiy kontekstga urg'u beruvchi yondashuvlarini integratsiyalash orqali ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar talabalarda reflektiv va empatik ko'nikmalarni rivojlantiradi, guruh ichidagi konstruktiv muloqot muhitini mustahkamlaydi va konfliktlarni konstruktiv tarzda hal qilish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar rol o'yinlar, case-study, muammoli vaziyatlar va reflektiv mashg'ulotlar verbal agressiyaning individual va ijtimoiy omillarini anglashga xizmat qiladi, talabalarni boshqalarning hissiyotlarini tushunishga va konstruktiv reaksiya ko'rsatishga o'rgatadi. So'rov va diagnostik tadqiqotlar Infante va Wigley modeli asosida o'tkazilgan bo'lib, verbal agressiyaning shaxsiy va guruhiiy komponentlarini aniqlash imkonini berdi. Natijada, milliy qadriyatlar asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar talabalarda ijobiy muloqot muhitini shakllantirish, verbal agressiyani kamaytirish va ma'naviy-psixologik barqarorlikni mustahkamlashda samarali vosita ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalari pedagoglariga talabalarining nutq madaniyatini rivojlantirish, agressiv xatti-harakatlarni profilaktika qilish va sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turdialiyeva S. Milliy qadriyatlar ma'naviy mustahkamlik asosidir //yangi o'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 532-535.
2. Xolmatova A., Xayrullaeva X. Milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasidagi o'rni //Pedagogs. – 2025. – T. 81. – №. 1. – C. 41-46.
3. Sobitjonova K. " ommaviy madaniyat" va milliy qadriyat //International Conference on Economics, Finance, Banking and Management. – 2025. – C. 330-334.
4. Vasenina I. V., Kuleshova N. S., Pronchev G. B. Verbal aggression in virtual social environments //Astra Salvensis. – 2018. – T. 6. – C. 29-37.
5. Po'latova N., Nurulloyev T. O'smirlarda agressivlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari //Наука и технология в современном мире. – 2025. – T. 4. – №. 17. – C. 99-103.